# Nufuzli xorij universiteti bilan xalqaro ilmiy seminar oʻtkazildi

2021-yil 21-aprel kuni TIQXMMI “Gumanitar fanlar” kafedrasi bilan Rossiyaning Janubiy Federal universiteti hamkorligida«Российско-Узбекистанские отношения: история, современность, перспективы развития» mavzuidagi xalqaro ilmiy davra suhbati boʻlib oʻtdi.

Ilmiy seminar ochilishida Oʻzbekiston Respublikasining Rostov Dondagi bosh konsuli Rustamjon Toʻxtarjanovich Kurganbaev ham ishtirok etib ushbu xalqaro aloqalarning muhim ekanligini taʼkidlab barcha ishtirokchilarni tabrikladi. Janubiy Federal universiteti bugun dunyoning 1000 talik universitetlari qatorida turadi. Kafedraning ushbu nufuzli universitet bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatishi uning xalqaro maydonga, fan va taʼlim sohasiga integratsiyalashib borayotganini koʻrsatadi.

Ushbu ilmiy seminarda “Gumanitar fanlar” kafedrasining mudiri t.f.d. SH.M.Oʻljaeva “Сотрудничество России и Узбекистана в сфере образования на современно этапе”,dotsent G.B Urazalieva “Особенности изучения гендерных проблем в системе высшего образования Узбекистана”, katta oʻqituvchi D.B.Axmedova“Значение реализации социально-гуманитарных проблем в развитии духовных традиций наших народов” mavzularidagi maʼruzalar bilan ishtirok etdilar.

**TIQXMMI matbuot xizmati**